

YANGI O‘ZBEKISTON – RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR YURTI

Z.R. Jaksimova

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari
institute 2-kurs talabasi

M.S. Abishov

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari
instituti dotsenti, e.i.k.,

ANNOTATSIYA

Hammamiz ko‘rib-bilib turibmiz – bugun insoniyat nihoyatda murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Yer yuzida iqlimning keskin o‘zgarishi, suv va boshqa tabiiy resurslar kamayishi bilan bog‘liq muammolar katta xatarlarga aylanmoqda. Xalqaro munosabatlarda o‘zaro ishonch kamayib, qarama-qarshilik va mojarolarning ortishi barqarorlik va rivojlanishga jiddiy xavf solmoqda. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston ishlab chiqarish salohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, mahsulot, raqobat, ishlab chiqarish, salohiyat.*

ABSTRACT

We know that humanity is going through extremely difficult times. Problems related to sudden changes in climate, depletion of water and other natural resources are becoming major threats on Earth. The decrease in mutual trust in international relations, the increase in contradictions and conflicts pose a serious threat to stability and development. This article talks about the production potential of New Uzbekistan.

Key words: *New Uzbekistan, product, competition, production, potential.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun murojaatnomasida “to‘rtinchi yo‘nalish ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog‘liq”. Biz nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarni ham o‘ylashimiz shart.

Shu bois, Konstitutsiyamizda tabiiy resurslar, jumladan, suv havzalari va yer osti zaxiralarini muhofaza qilish bo‘yicha talablarni kuchaytirishimiz zarur. Bilasiz, mamlakatimiz so‘nggi 3 yilda qurg‘oqchilikni boshdan kechirdi. Buning ta‘siri, ayniqsa, Amudaryoning quyi havzasidagi hududlarimizda yaqqol sezildi. Shu o‘rinda Amudaryo o‘zanida yangi kanal qurilishi bo‘yicha qo‘shni Afg‘onistonning muvaqqat hukumati hamda jahon hamjamiyati bilan birga xalqaro me‘yorlar asosida va mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olish yuzasidan amaliy muloqotlar olib borish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv qo‘shnilarimiz

tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanishiga ishonamiz. Umuman, so‘nggi 15 yilda yog‘ingarchilik 25 foizga qisqardi. Yozda o‘ta issiq kunlar davomiyligi ortgani oldimizda hali katta sinovlar borligidan dalolat beradi. Lekin hozirgi vaqtda ekin maydonlariga suv yetkazib berishda sezilarli yo‘qotishlar bor. Shu bois, suv xo‘jaligi tizimi isloh qilinadi. Suvning hisobini ochiq-oshkora yuritish tizimi joriy etiladi va kelgusi uch yilda 13 mingga yaqin suv xo‘jaligi ob‘yekti raqamlashtiriladi. Shu bilan birga, 16 ta yirik nasos stansiyasi davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilinadi va muqobil energiyaga o‘tkaziladi. Bularga qo‘shimcha ravishda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarning bir qismi tumanlarda sug‘orish xizmatlarini rivojlantirish, ariq, zovur va kanallarni betonlashga yo‘naltiriladi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash shular jumlasidandir. Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa‘y-harakatlarimizni, xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz. Yer munosabatlari bo‘yicha katta ishlarni boshlab, shu yilning o‘zida 100 ming gektar ekin yerini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berdik. Buning hisobidan 1,5 million tonna qo‘shimcha oziq-ovqat yetishtirildi. Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarimiz band bo‘lib, daromad olyapti. Agar shu islohotni qilmaganimizda, bozor va do‘konlarimiz hozirgidek to‘kin bo‘larmidi, eksport shu darajaga yetarmidi, jon boshiga daromad o‘sarmidi? Shu bois, 2023 yilda ham suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan 100 ming gektar qo‘shimcha ekin maydonlarini aholiga ajratamiz. Buning hisobidan qariyb 350 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi. Agar jami 750 mingta yangi dehqon xo‘jaligini tadbirkorga, yer egasiga aylantira olsak, qishloqda juda ko‘p ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambag‘allik masalasi yechiladi. Men bunga ishonaman. Viloyat va tuman hokimlari bu ishni samarali tashkil etishga mas‘ul va javobgar bo‘lib, xalq oldida doimiy hisobot berib borishlari kerak. Buning uchun kooperatsiyani faol qo‘llab-quvvatlaymiz, kichik va o‘rta quvvatli saqlash korxonalarini, saralash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantiramiz. Umuman, agrar sohada yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 2023 yilda 1 milliard dollar ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash;

qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash;

davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;

qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq hududlarini rivojlantirish;

tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Yirik ishlab chiqarish korxonalarining maydalarini afzalligini asosiy omillari quyidagilar:

- moddiy-texnika bazasining rivojlanish darajasi.
- texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati.
- tashkil qilish va boshqarish formalari va boshqalardir.

Qishloq xo‘jalik nazariyasi va amaliyoti faqatgina yirik xo‘jaliklarga samaradorli bo‘lish xususiyatiga ega degan yagona fikrga mukkasidan ketilishi natijasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida bir necha bor yiriklashtirish tadbirlari amalga oshirildi va bo‘larga o‘z navbatida katta isbotlanmagan kapital mablag‘lar sarflandi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki yirik ishlab chiqarish bilan mayda ishlab chiqarishni bir-biriga muvofiq holda olib borilishi yuqori iqtisodiy samaradorlik garovidir. Shuning uchun ham hozirda birlamchi bug‘in sifatida, fermerlar, dexqon xo‘jaliklari, kichik pudrat jamoalari, oilaviy pudrat va boshqalar yirik korxonalar tarkibida tashkil bo‘lmoqda.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti, bir tomondan ishlab chiqarishni har xil sohalarini va ularni ma‘lum xildagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashga ajratsa, boshqa tomondan ular o‘rtasida aniq va puxta kooperativ aloqani taqozo etadi. Xo‘jaliklar, bunda o‘zaro

va sanoat korxonalari bilan ishlab chiqarish, iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradilar. Yangi xildagi yirik ixtisoslashgan tashkiliy ishlab chiqarish formalari vujudga keladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 27.12.2022 yildagi SQ-669-IV-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.
3. Alimovna, E. Y., Alimovna, E. G., & Burievna, M. S. (2020). Historical Stages Of Innovative processes In Higher Education Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 9824-9834.
4. Муртазова, С. Б., & Муртазов, С. Б. (2021). ИЗ ИСТОРИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 152-156.
5. Ergasheva, Y. A., Vasieva, D. I., & Murtazova, S. B. (2019). Political persecutions and ideological pressure on the creative intellectuals of Uzbekistan in post-war decades. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(2 S10), 374-377.